



FURTHER IMPROVING THE LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE OF CIVIL SERVANTS

Makhbuba Toshmatova

*independent researcher, Head of the Legal Information Department, 1st degree lawyer
Tashkent State Law University
Fergana Regional Justice Department
Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: legal awareness, legal culture, civil servants, legislation, ethical principles, cooperation with citizens, modern technologies, public administration, social justice, transparency.

Received: 22.03.25

Accepted: 24.03.25

Published: 26.03.25

Abstract: The importance, content and essence of improving the legal awareness and legal culture of civil servants and the main factors contributing to its improvement are analyzed. Legal awareness refers to the knowledge and understanding of the legislation by civil servants, and legal culture refers to the ability to apply the principles of legality in practice. The role of education, transparent governance, the introduction of modern technologies and the development of interaction with citizens in improving legal literacy is emphasized. The development of legal awareness and culture is considered an important factor in ensuring social justice, increasing the efficiency of public administration and strengthening citizens' trust in the state.

DAVLAT XIZMATCHILARINING HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATINI YANADA YUKSALTIRISH

Maxbuba Toshmatova

*mustaqil izlanuvchi, Xuquqiy axborot shubasi boshlig'i, 1-darajali yurist
Tashkent davlat yuridik universiteti
Farg'onan viloyat adliya boshqarmasi
O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, davlat xizmatchilari, qonunchilik, axloqiy tamoyillar, fuqarolar bilan hamkorlik,

Annotatsiya: Davlat xizmatchilarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning ahamiyati, mazmun-mohiyati va uni oshirishga xizmat qiluvchi asosiy

zamonaviy texnologiyalar, davlat boshqaruvi, ijtimoiyadolat, shaffoflik.

omillar tahlil qilinadi. Huquqiy ong davlat xizmatchilarining qonunchilikni bilishi va tushunishi, huquqiy madaniyat esa qonuniylik tamoyillarini amalda qo'llash malakasini anglatadi. Huquqiy savodxonlikni oshirishda ta'lim, shaffof boshqaruv, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va fuqarolar bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirishning o'rni alohida ta'kidlanadi. Huquqiy ong va madaniyatning rivoji ijtimoiyadolatni ta'minlash, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim omil sifatida qaraladi.

ДАЛЬНЕЙШЕЕ ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОСОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ

Махбуба Тошматова

*Независимый исследователь, начальник отдела правовой информации, юрист I уровня
Ташкентский государственный юридический университет
Ферганское областное управление юстиции
Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, государственные служащие, законодательство, этические принципы, сотрудничество с гражданами, современные технологии, государственное управление, социальная справедливость, прозрачность.

Аннотация: Анализируются значение, содержание и сущность повышения правосознания и правовой культуры государственных служащих, а также основные факторы, способствующие ее повышению. Правовая осведомленность подразумевает знание и понимание государственными служащими законов, в то время как правовая культура подразумевает их способность применять принципы законности на практике. Подчеркивается роль образования, прозрачного государственного управления, внедрения современных технологий, развития взаимодействия с гражданами в повышении правовой грамотности. Развитие правосознания и правовой культуры рассматривается как важный фактор обеспечения социальной справедливости, повышения эффективности государственного управления, укрепления доверия граждан к государству.

Davlat xizmatchilarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish har qanday jamiyatda davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xizmatchilarining huquqiy savodxonligi ularning vazifalarini halollik,adolat va qonuniylik

asosida bajarishlarini ta'minlaydi. Shu sababli, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish davlat boshqaruvi tizimining poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu masala huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib, uning rivoji ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy ong davlat xizmatchilarining huquq va majburiyatlar, qonuniy normalar va me'yirlarni bilishi hamda ularni kundalik faoliyatida to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Huquqiy ong nafaqat qonunchilikni bilishni, balki uning mazmun-mohiyatini tushunishni ham talab etadi. Bu esa qonunlarni texnik jihatdan qo'llashdan ko'ra chuqurroq mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Davlat xizmatchilarining huquqiy ongini rivojlantirish ularda qonunchilik normalarini ijtimoiyadolat tamoyillari asosida qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

Huquqiy madaniyat esa huquqiy ongning amaliy ko'rinishi bo'lib, shaxsning qonunlarga hurmat bilan qarashi, qonunchilik me'yorlariga muvofiq xulq-atvorni saqlashi va qonunlarni hayotga tatbiq etish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Davlat xizmatchilarida huquqiy madaniyatning yuksakligi ularning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshiradi va korruptsiya, qonunbuzarlik kabi salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Huquqiy madaniyat davlat xizmatchilari uchun bir necha darajalarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, bu xodimlarning o'z xizmat faoliyatida qonunlarni qat'iy rioya qilishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, huquqiy madaniyat fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarda odob-axloq va adolatni ta'minlashni talab qiladi. Uchinchidan, bu davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish uchun qonunlarni targ'ib qilish va huquqiy bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazishni o'z ichiga oladi [1].

Davlat xizmatchilarini muntazam ravishda huquqiy savodxonlik bo'yicha o'qitish ularning qonunchilik me'yorlarini to'liq tushunishini ta'minlaydi. Huquqiy ta'lim nafaqat nazariy bilim berishni, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni ham o'z ichiga olishi kerak. Maxsus o'quv kurslari, seminar va treninglar davlat xizmatchilarining huquqiy bilimlarini yangilab turishda muhim ahamiyatga ega. Davlat xizmatchilari faoliyatini tashkil qilishda shaffoflikni ta'minlash va qonuniylikka rioya qilish zarur. Bu holat ularning jamiyatga nisbatan mas'uliyatini oshirib, qonunga hurmat hissini kuchaytiradi. Xizmatchilar uchun ish tartib-qoidalalarining aniq va tushunarli bo'lishi ularning huquqiy madaniyat darajasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun korruptsiya va boshqa qonunbuzarlik holatlariga nisbatan qat'iy choralar ko'rishi lozim. Davlat xizmatchilari qonunbuzarliklar uchun javobgarlikni tushunishi va bunga yo'l qo'ymaslikka intilishi kerak. Bu borada nazorat organlari va jamoatchilik nazorati muhim o'rin tutadi.

Huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun davlat xizmatchilarining qonuniy va halol faoliyatini rag'batlantirish muhimdir. Xodimlarning mas'uliyatli ish faoliyati munosib mukofot bilan taqdirlansa, ular huquqiy ong va madaniyatni yanada rivojlantirishga intiladi. Shu bilan birga, qonunbuzarliklarga nisbatan qat'iy jazo mexanizmlari joriy etilishi lozim. Zamonaviy

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davlat xizmatchilarining huquqiy savodxonligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [2]. Onlayn kurslar, virtual treninglar va huquqiy hujjatlar ma’lumot bazalarining mavjudligi xodimlar uchun qulay sharoit yaratadi. Huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish orqali davlat boshqaruv tizimi samaradorligi oshadi, fuqarolar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch mustahkamlanadi. Davlat xizmatchilarining huquqiy bilimlari va madaniyatiga asoslangan faoliyati ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashga xizmat qiladi. Bu esa huquqiy davlatni shakllantirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Davlat xizmatchilari har bir qaror qabul qilish va uni amalga oshirish jarayonida qonuniylik tamoyillariga asoslanadi. Huquqiy ong va madaniyatning past darajasi esa nafaqat boshqaruv samaradorligini pasaytiradi, balki ijtimoiyadolat tamoyillarini buzilishiga olib keladi. Masalan, qonunlarning noto‘g‘ri qo‘llanishi yoki ularga nisbatan yuzaki yondashuv fuqarolar orasida davlat xizmatlariga nisbatan ishonchni zaiflashtiradi. Shu bois, davlat xizmatchilarining huquqiy ong va madaniyat ularning kundalik faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Huquqiy ongni yuksaltirish uchun qonunchilik me’yorlarining doimiy ravishda zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirilishi talab etiladi. Davlat xizmatchilarining huquqiy savodxonligini oshirishda ularni yangi qonunlar, normativ hujjatlar va qarorlar bilan tezkor tanishtirish muhimdir. Shu bilan birga, qonunchilikning izchilligi va tushunarligi ta’minalishi lozim, chunki murakkab va chalkash qonunlar ularni qo‘llashda xatolarga olib kelishi mumkin.

Huquqiy madaniyat faqat qonunlarni bilish bilan cheklanmay, ularning amaliy qo‘llanilishi va bu jarayonda axloqiy normalarga rioya qilishni ham talab etadi. Davlat xizmatchilarining huquqiy madaniyati ularning xizmat vazifalarini halollik, beg‘arazlik va xolislik asosida bajarishiga ta’sir qiladi. Huquqiy madaniyat darajasini oshirish uchun etika kodekslari va ularning bajarilishini nazorat qiluvchi mexanizmlarni joriy etish zarur. Davlat xizmatchilarida axloqiy va huquqiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Etika kodekslarini kuchaytirish: Davlat xizmatchilarining xizmat vazifalarini bajarishda axloqiy tamoyillarni belgilovchi hujjatlar va ularni keng jamoatchilikka tushuntirish muhimdir.
- Ochiq muhokamalarni tashkil etish: Xodimlarning huquqiy masalalarda o‘zaro fikr almashishi, huquqiy muammolarni birgalikda tahlil qilishi ularning huquqiy madaniyatini oshirishga yordam beradi [3].

Huquqiy ongni yuksaltirish bo‘yicha har qanday tashabbus mahalliy sharoitlarni va davlat xizmatchilarining faoliyat yuritadigan mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni hisobga olishi kerak. Har bir mintaqaning o‘ziga xos ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning ta’siri huquqiy ong va madaniyat shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, huquqiy ongni yuksaltirish strategiyasi lokal kontekstga mos ravishda ishlab chiqilishi lozim. Davlat xizmatchilarining huquqiy ong va madaniyatini oshirish faqat ichki faoliyatni tashkil qilish bilan

cheklanmasligi kerak. Fuqarolar va davlat xizmatchilar o‘rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirish ham muhim omil hisoblanadi. Fuqarolar davlat xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan yuqori talab qo‘yishi va ular bilan samarali muloqot qilishi orqali xodimlarni huquqiy bilimlarini oshirishga rag‘batlantiradi. Shu bois, davlat xizmatchilar fuqarolar bilan ochiq va shaffof muloqot qilishga intilishi lozim.

Qonunchilikni joriy etishda, davlat xizmatchilar qonunlar va me’yorlarga murojaat qilishda yuqori mas’uliyatni his etishlari zarur. Buning uchun ularni muntazam ravishda huquqiy savodxonlik bo‘yicha o‘qitish va amaliy treninglar bilan ta’minalash, shuningdek, huquqiy madaniyatni rivojlantirishga yordam beruvchi yangi metodlarni joriy etish muhimdir. O‘zgartirishlar va yangiliklar bo‘yicha tezkor va samarali axborot tizimlari yaratish, bu jarayonni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Davlat boshqaruvini yaxshilash va huquqiy madaniyatni rivojlantirishning boshqa asosiy yo‘nalishlaridan biri bu shaffoflikni ta’minalashdir. Agar davlat xizmatchilar o‘z faoliyatida shaffof va adolatli bo‘lsa, bu jamiyatda hukumatga bo‘lgan ishonchni oshiradi va fuqarolarni qonunlarga hurmat bilan qarashga undaydi. Bundan tashqari, davlat xizmatchilarining huquqiy ongini oshirishda axloqiy etikaning rolini e’tiborga olish lozim. Huquqiy madaniyatning yuksalishi davlat xizmatchilarining nafaqat qonunlarga, balki axloqiy va etika tamoyillariga ham amal qilishini ta’minalaydi [4]. Davlat xizmatining sifatini oshirish va fuqarolarga xizmat ko‘rsatishda yuqori me’yorlarga erishish, huquqiy madaniyatni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali davlat xizmatchilarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron hukumat tizimlari va raqamli platformalar orqali davlat xizmatlarini amalga oshirish davlat xizmatchilaridan huquqiy bilimlarning yanada yuqori darajasini talab qiladi. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanish jarayonida qonunlarga rioya qilishni ta’minalash ham davlat xizmatchilarining huquqiy madaniyatining ajralmas qismiga aylanadi. Davlat xizmatchilarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish qonuniylikni ta’minalash, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish va fuqarolar davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. Bu jarayonda ta’lim, huquqiy axborotdan foydalanish, axloqiy tamoyillarni targ‘ib qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirilishi zarur. Huquqiy ong va madaniyatning rivojlanishi orqali nafaqat davlat boshqaruvi, balki butun jamiyat barqarorligi va rivojlanishiga erishiladi. Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatchilarining huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish, ularga mas’uliyat hissini singdirish va qonuniylikni kundalik faoliyatining ajralmas qismiga aylantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkin. Bunda ta’lim, shaffof boshqaruv tizimi va samarali nazorat mexanizmlari asosiy omillar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, N. (2020). "Huquqiy madaniyat va uning jamiyatdagi o‘rnii." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
2. Davlatov, A. (2019). "Huquqiy ong va madaniyatning rivojlanish jarayonlari." "Huquqshunoslik" ilmiy jurnali, 45(2), 67-73.
3. Sharipov, I. (2018). "Davlat boshqaruvi va huquqiy ong: nazariya va amaliyot." Toshkent: Yuridik nashr.
4. Nazarov, B. (2021). "Huquqiy madaniyat va etika: Davlat xizmatchilarining mas’uliyati." "Huquq va taraqqiyot" jurnali, 12(1), 23-29.